

## INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA MATINLARIDA DEYKTIK BIRLIKLER VA ULARNING MOHIYATI.

**Shermatov Akram Abduxakimovich**

F.f.n, dots

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz filologiyasi va tarjimonshunoslik

fakulteti Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri

**Hamroyev Sardor Akmaljon o'g'li**

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz filologiyasi va tarjimonshunoslik

fakulteti Magistratura bo'limi 2-bosqich talabasi. Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi stajyor-o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtida tilshunoslardan matn tejamkorligi hamda matn mazmundorligiga katta e'tibor qaratishmoqda. Shu sababli har qanday matn tejamkorligi hamda, mazmundorligini oshirish uchun tilshunoslardan tamonidan tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi deganda, biz shaxsni ifodalovchi deyktik birlklarga asosiy e'tiborni qaratganmiz.

**Kalit so'zlar:** sintaksis, tilshunoslik, deyktik holat, voqealik, predmet.

Hozirgi vaqtida tilshunoslik sohasida insonning tafakkur va komunikatsiya faoliyati bilan bog'liq hodisalarini o'rganish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida, matn mazmunini shakllantira oladigan kategoriyalarning xususiyatlarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib oladi. Ananaviy grammatikalardan bizga ma'lumki, gapning bosh bo'laklari deganda biz ega va kesimni tushunamiz. Bosh bo'laklar masalasida avvalom bor, ega yoki krsimga berilgan ta'riflarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir

B. Ilsh egaga quydagicha ta'rif beradi: «Ega gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lib, kesim tomonidan ifodalangan harakat yoki xususiyatini ifodalaydigan narsa, boshqa birorta gap bo'lagiga tobe emas hamda turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin».

Ega gapning shunday bo'lagiki, u ifodalagan shaxs yoki narsaga kesim ifodalagan harakat, belgi yoki holat tegishli bo'ladi. Ega mutloq mustaqil bo'lak bo'lib, kesim ham egaga tobe va ko'p hollarda ega bilan shaxs – sonda moslashadi.

Yuqorida biz ega haqida umumiy tushunchani ko'rib chiqdik. Shunday qilib, e'tiborimizni «ega» ning deyksisdagi umumiy holatlarini ham ko'rib chiqsak. Bizga ma'lum bo'lidi, «deyksis» tushunchasi davirlar o'tishi bilan tilshunoslik doirasida yana ham kengroq ma'noda ishlatila boshlandi.

Hozirgacha tilshunoslikda deyksis belgilar tasnifi masalasi uzlusiz muhokama qilinib kelinmoqda.

Catherine Barkley was greatly liked by the nurses, because she would do night duty indefinitely

Keltirilgan misol orqali men himoya ishimning mavzusi bo'lmish deyksisga uchragan ega mavzusiga qisman kirish qildim. Ya'ni sentiz tili badiiy matnida ega deyksisning voqealanishini ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Bunda biz deyksis hodisalarining gap tarkibida turli xil gap bo'laklarini ko'rsatib keluvchi ishora so'z sifatida kela olishini hisobga olgan holda « ega » deyksisning semantik maydonini ko'rib chiqamiz:

1. The soldier stopped and sat down beside the road. I got down and went over. « What's the matter? » He looked me, then stood up

2. The lientenant said I slipped the truss on purpose ... He'll say I did it on purpose

3. The Emperod and the people held frequent councils to debate... They apprehended...

4. Five hundred carpenters and engineers were immediately set at work to prepare the greatest engine they had. They were a frame...

Keltirilgan misollarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, badiiy matnda deyksis hodisasidan asosan bir sintaktik birlikning bir necha bor takrorlamaslik maqsadida foydalanilishi aniq. Lekin hozirgi zamon tilshunoslida asosiy sintaktik birlik va uning deyktik holatga uchragan sintaktik elementlarning gap tarkibida tutgan o'mi ularning boshqa sintaktik birliklar bilan o'zaro sintaktik aloqalari, ularning differensial sintaktik belgilari hamda sintaktik sathda o'rganilmaganligi ma'lum. Masalan, biror bir notanish narsani ko'rib qolib, «Bu nima?» savoli bilan suhbatdoshga murojaat qilinganda, deyktik ibora ( bu ) vositasida shu muhitda mavjud bo'lgan narsa-predmetga ishoradir.

Deyktik iboralar bolalar nutqi rivojining dastlabki bosqichlaridayoq paydo bo'ladi. Psixolingvistlarning kuzatishlari va guvohlik berishicha, 3-7 yoshdagi bolalar nutqi, birinchidan, egosentrik bo'lsa, ikkinchidan, telegraf uslubida, ya'ni «grammatikasiz» tartibda yuzaga keladi. Shu sababli bo'lsa kerakki, go'daklar grammatik shakklardan ko'ra «men», «sen», «u yerda», «mana», «bu», «hozin», «keyin» kabi iboralarni ma'qul ko'radilar.

Bunday iboralarning lisoniy qobiliyat shakllanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lishiga yana bir sababni ushbu iboralarning ma'no xususiyatlari bilan bog'liq deb hisoblash tarafdorimiz. Ma'lumki, deyktik belgilarning ma'no xususiyatlari boshqa nominativ belgilarnikidan tubdan farq qiladi. Ular voqelikdagi predmet-hodisalarni bevosita atamasdan, balki predmet, hodisa, shaxslarning nutq vaziyatiga nisbatan joylashuvini ko'rsatadi. Bunday qo'rsatish muloqot ishtirokchilari (so'zlovchi va tinglovchi) predmet va shaxslarning egallagan o'rni (bu o'rin nutq subyektlariga nisbatan belgilanadi) hamda muloqot kechayotgan vaqt kabilarni qamrab oladi.

Shu xususiyatlariga binoan deyktik iboralar bilvosita ma'noga ega lisoniy belgilar sifatida qaraladilar Go'daklar talaffuz qiladigan so'zlar ham, odatda, bevosita referentga ega emas, ular vositasida aniq predmet yoki hodisa nomlanmaydi. Go'dak yagona bir so'z bilan butun bir kechayotgan hodisani yoki hodisalar qatorini ifodalashga qodir.

Nutqiy harakat koordinatlarining qaysi biri ko'rsatilishiga ko'ra deyktik birliklar turli guruhlarga ajratiladi. Ilk tasniflar morfologik tamoyilga asoslangan bo'lib, ularda shaxs olmoshlari «men-sen-boshqa ( u )» deyktik guruhlariga taqsimlangan.

Nemis tilshunosi Karl Brutmanning ushbu morfologik tasnifini keyinchalik Karl Byuller qayta ko'rib chiqib, guruhlar soni va tarkibini nutqiy muloqot vaziyatining boshqa qismlari hisobidan kengaytirdi. Til tizimi tahlili nazariy asoslari bilan shug'ullanishga qiziqqan ushbu psixolog-olim 1936 yilda e'lon qilingan «Tilning struktur modeli» ( Das Strukturmodels der Sprache) nomli maqolasida «Til (tahlili— Sh.S.) nazariyasi ijtimoiy nutq vaziyati tahliliga tayanmog'i shart va lozimmi?» degan savolga tasdiq javobining dalillarini izlaydi.

U har qanday tilda ko'rsatish (ishora) maydoni mavjudligini va bu maydon uchun «xizmat» qiluvchi «ko'rsatgich-so'zlar» guruhlari borligini qayd qiladi. Bu so'zlar egallangan o'ringa ishora va shaxslar ishtirokini ko'rsatuvchilar turlariga bo'linadi. Haqiqatda ham K.Byuller aytganidek, «aniq nutqiy vaziyat tahliliga tayanmasdan turib, qanday boshqa yo'sinda barcha ko'rsatish so'zlarining vazifalarini aniqlash mumkin?» Muallif «Til nazariyasi» asarida deyksis hodisasining mohiyati haqidagi 'ilmiy qarashlarini jamlab, ushbu hodisaning til qurilishi va nutqiy muloqot tizimida tutgan o'rni, bajaradigan vazifalarini yanada aniqlashtirishga harakat qilgan. Balki ingлиз faylasufining fikri mantiqan to'g'ridir, chunki barcha turdag'i deyktik iboralar ko'rsatish, ishora ma'nosini ifodalaydilar hamda ko'rsatish maydonining

markazida so'zlovchi shaxs turishi sababli ishoraning boshlang'ich nuqtasi ham uning «ko'z o'ngi» da turgan voqyelik parchasidir.

Ushbu voqyelikning kommunikativ ifodasida “bu” ko'rsatkichi asosiy o'rinni egallaydi. Ammo mantiqiy mazmunning lisoniy ma'noga muvofiq kelishi har doim ham kuzatilavermaydi.

Mantiqiy idrok ko'p bosqichli konseptual (tafakkur) «ishlov»idan o'tgandan so'ngina lisoniy voqeylikka aylanishi ma'lum.

«Ma'no» tushunchasini «obyektning shaxs ongida aks topgan umumlashgan benuqson tasavvurdagi modeli» deb ta'riflagan psixolog V.F. Petrenko bu modelning shakl topishini oddiy faoliyat emasligini qayd qiladi: «ong (lisoniy- Sh.S.) belgilari vositasida voqyelikni oddiygina takrorlamasdan, balki undagi subyekt uchun ahamiyatli bo'lgan xususiyat va belgilarini ajratib, umumlashgan model qurilmasini yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Y.M. Volf. “ Emotsional nutqiy birliklar”
2. K. Byuller. “Til nazariyasi”
3. Karl Brutman. “Tilning struktur modeli”